

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI
NAVOIY VILOYATI O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI
BOSHQARMASI**

**ZARAFSHON SANOAT KASB-HUNAR KOLLEJI
“ANIQ FANLAR” kafedrası**

OCHIQ DARS ISHLANMASI

**MAVZU: Ofis dasturlari bo'yicha umumlashtiruvchi
mashg'ulot**

**“Bozor iqtisodiyoti sharoitida diler
firmalar ishi” nomli ishchi o'yin ishlанmasi**

Bajardi: Aliqulova D.E.

Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji

informatika fani o'qituvchisi

ZARAFSHON – 2011-2012

Amaliy mashg'ulot №10.

Ofis dasturlari bo'yicha umumlashtiruvchi mashg'ulot

“Bozor iqtisodiyoti sharoitida diler firmalar ishi” nomli ishchi o'yin ochiq dars ishlanmasi

Dars maqsadi:

Ta'limiy: ta'lim olish mahoratini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini o'stirish, office dasturlari (MS WORD, MS EXCEL, MS POWERPOINT) haqidagi tushunchani mustahkamlash, kompyuter bilan muloqot jarayonida olingan bilimlarni namoyish eta olish qobiliyatini o'stirish;

Tarbiyaviy: O'quvchilarga aqliy va axloqiy tarbiya berish, ota-ona oldidagi o'z burchlarini chuqur tushunadigan, bilimli va erkin fikrlay oladigan ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi: mantiqiy tafakkurni, nutq, xotirani rivojlantirish, Office dasturlari bilan ishlay bilish va kompyuterda aniq natijaga erishishlarini shakllantirish va mustahkamlash;

Kasbga yo'llovchi: o'quvchilarni zehnlilikka, ishbilarmonlikka o'rgatish, dizayner, menedjer, hisobchi – dasturchi kasblarining ayrim qirralari bilan tanishtirish, kasbga yo'llash;

Milliy istiqlol g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirish: Milliy qadriyatlar, san'at, ulug' mutafakkirlarning ta'lim olish jarayoniga, uning rivojlanishiga qo'shgan hissalar haqida tushunchalar berish, Vatanni sevish, o'z yurtidan g'ururlanish, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish.

Dars tipi: O'tilgan mavzuni mustahkamlash darsi

Dars uslubi: Ko'rgazmali-amaliy, ishchi o'yin

Dars usuli: Suhbat, test sinovi, kichik guruhlarda ishlash, “Muzyorar”, “Tayanch signallar”, “Blits-savol”, Xotira mashqi, klaster usuli, Venn diagrammasi.

Dars jihozi:

Tarqatma materiallar (Zig-zag), test kartochkalari, kompyuter, proyektor, slaydlar, reklama roligi, jetonlar, to'ldirish varaqalari

Darsning borishi:

1. **“Psixologik muhit”.** **“Milliy dastur ravnaqi – kelajak poydevori”** reklama roligi orqali psixologik iqlim yaratish, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshiriladi, jurnal to'ldiriladi, davomat olinadi. **Reglament: 3 minut**
2. **“Tashkiliy qism”.** O'qituvchi guruhni kichik guruhlarga ajratadilar. Nom beradilar. Dars maqsadi bilan tanishtiradilar. **Reglament: 7 minut**

“Ilm bir daraxt bo'lsa, odob uning mevasidir. Odobsiz kishi mevasiz daraxtga o'xshaydi. Yoshlikda zahmat chekib, ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan”.

Bu so'zlar bilan o'qituvchi o'quvchilarni ilmu marifatga, odobga undaydi.

O'qituvchi: Bugungi darsimiz **Ofis dasturlari bo'yicha umumlashtiruvchi amaliy mashg'ulot** edi. Bu darsni ishchi o'yin tarzida o'tkazishga kelishib oldik. Guruhni uchta guruhga bo'lib, ularga **“MS WORD”, “MS EXCEL”, “MS POWERPOINT”** firmasi nomlarini berdik. Dars mazmunini to'liq tushunish maqsadida ozgina chekinish qilsak:

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida **2011 yilni Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili** deb e'lon qildi. Mamlakatimizning taraqqiyotini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jahon miqyosidagi nufuzini oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kuchaytirib, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko'paytirish va farovonligini oshirishning muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi darsimizni ham shu asosda tashkil qildik. Har bir o'quvchi bo'lajak tadbirkor bo'lishi mumkin. Demak, tadbirkor biznes reja asosida ish ko'rishi kerak. Guruhlarga bo'lingan har bir firma a'zolari o'z firmalarini tashkil qilish uchun berilgan biznes reja asosida o'z bilimlari bilan kurash olib boradilar. Natijada berilgan kapitalni to'plab o'z firmalarini saqlab qoladilar va faoliyat yuritish uchun litsenziyaga ega bo'ladilar.

Asosiy qism: Biznes reja: Boshlang'ich mablag' 200000 so'm.

1. **“10 so'z yoki ibora”**. Office dasturlariga oid so'z yoki iboraning mazmunini tez aytish. Uchta guruhga umumiy beriladi. Har bir so'z yoki ibora mazmuniga 1000 so'mdan mablag' beriladi. Maksimal mablag': 10000 so'm gacha. Qaysi guruh ko'p mablag' yig'adilar? Kim chaqqon? **Reglament:** 10 minut.

1. Word imkoniyatlari 2. Kolontitul 3. Diapozon 4. Slayd 5. plotter
6. taqdimot 7. Skaner 8. Vinchester 9. Protsessor 10. Ustun va satrlar soni

2. **“10 ta blits –savol”**. Bank ma'muriyati har bir firmaga blits savollar jo'natganlar. Har bir savolga 2000 so'mdan mablag' ajratgan. Maksimal mablag': 20000 so'm dan. Shtraf 1000 so'm. **Reglament:** 20 minut.

1. “MS WORD” firmasiga

1. MS Word dasturi nima vazifani bajaradi?
2. Word dasturi qanday axborotlar bilan ishlash imkoniyatiga ega?
3. Word dasturi oynasi elementlarini ayting?
4. Word dasturi menyu bo'limlarini ayting?
5. Hujjatni saqlash usullarini ayting?
6. Jadvallardan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?
7. Wordda Bukvitsa buyrug'I nima vazifani bajaradi?
8. WordArt obyekti nima uchun ishlatiladi?
9. Wordda rasmlar qanday qo'yiladi?
10. Wordda formula bilan qanday ishlanadi?

2. “MS EXCEL” firmasiga


1. EXCEL dasturi nima va nima uchun ishlab chiqilgan?
2. EXCEL ning asosiy ish ob'ekti nima?
3. Ishchi kitob nima va u nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Elektron jadvalning asosiy elementlarini aytib bering.
5. Ustunlar sarlavxasi qanday belgilanadi?
6. EXCEL da sonlarni kiritish usullari qanday?
7. Avtomatik to'ldirish nima? U qanday amalga oshiriladi?
8. Formula nima? U yacheykalarga qanday kiritiladi?
9. «Мастер функций» (Funksiyalar ustasi) nima ish bajaradi?
10. “#####” nima ma'noni anglatadi?

3. “MS POWERPOINT” firmasiga

1. PowerPoint qanday dastur xisoblanadi?
2. Slayd nima? Unda nimalar joylashtiriladi?
3. Prezentasiya (taqdimot) deganda nimani tushunasiz? Undan qaerlarda foydalanish mumkin?
4. PowerPoint dasturining necha hil ish rejimi bor? Ularning har birini tavsiflab bering.
5. Slaydlarni bezash ishlarini amalga oshirish uchun kaysi tugmachalardan foydalaniladi?
6. Maxsus effekt deganda nima tushuniladi?
7. Animasion effekt deganda nimani tushunasiz?
8. Animasion effektlardan kaerlarda foydalanish mumkin?
9. Taqdimotga rasm qanday quyiladi?
10. Taqdimotga jadvallar qo'yishni tushuntirib bering.



3. “**Klaster – plakat**”. Har bir guruhga A3 format berilib, o'zlariga berilgan dastur asosida klaster tuzish talab qilinadi. Minimum 10 ta ma'lumot joylashtiriladi. **Reglament:** 5 minut. Mablag': 2500 so'mdan jami 25000 so'm to'playdilar.

Namuna:




4. **“Test”**. Har bir guruh a`zolariga test variantlari tarqatiladi. Har bir a`zo o`z guruhiga mablag` olib berishi kerak. 10 tadan test, har bir test savoliga 1000 so`mdan mablag` beriladi va komanda maksimal 50000 so`m jamg`aradilar. **Reglament:** 5 minut.

Namuna: Test topshiriqlari:

1. Символ qanday amalni bajaradi?
 - a) Ekranga rasm o`rnatish
 - b) Klaviaturada mavjud bo`lmagan belgilarni ekranga o`rnatish
 - c) To`g`ri javob yo`q
2. WordArt ni ishga tushiruvchi piktogramma qnday ko`rinishda bo`ladi?
 - a) 
 - b) * 
 - c) 
3. Quyidagi piktogrammalardan qaysilari «Вставка» bolimiga tegishli?
 - a) 
 - b) 
 - c) * 
4. **Вставка** bo`limidagi Дата и время bandi qanday vazifani bajaradi?
 - a) *Ekranga vaqtni chiqarish vazifasini bajaradi
 - b) Klaviaturada mavjud bo`lmagan elementlarni chiqarish vazifasini bajaradi
 - c) To`g`ri javob yo`q
5. Word qanday ishga tushiriladi?
 - a) *Пуск- Программы- Microsoft Word
 - b) Пуск- Программы- Стандартные- Microsoft Word
 - c) Пуск- Стандартные- Microsoft Word
6. Wordda qanday menu bo`limlari mavjud?
 - a) Файл, Правка, Вид, Вставка, Формат, Рисунок, Палитра
 - b) *Файл, Правка, Вид, Вставка, Формат, Сервис, Таблица, Окно, Справка
 - c) Файл, Правка, Вид, Вставка, Формат, Сервис,
7.  piktogrammasining vazifasi nimadan iborat?
 - a) Yozuvlarni chiroyli qilib yozish
 - b) To`g`ri javob yo`q
 - c) * Ekranga rasm chiqarish
8.  piktogrammasining vazifasi-chi?
 - a) *sarlavha fonini bo`yash
 - b) sarlavha rangini o`zgartirish
 - c) To`g`ri javob yo`q
9. Quyidagilardan qaysi biri so`zdan nusxa ko`chirish piktogrammasi?
 - a) 
 - b) 
 - c)* 
10. Wordda blok sxema chiqarish uchun quyidagilardan qaysi biridan foydalaniladi?
 - a) * 
 - b) 
 - c) to`g`ri javob yo`q

5. “**Venn diagrammasi**”. Uchta dasturga oid 20 ta piktogrammani taqqoslab Venn diagrammasiga joylashtiradilar. Maksimum: 20000 so'm. **Reglament:** 5 minut.

Microsoft Word, Microsoft Exsel va Microsoft PowerPoint dasturlarini solishtiring



6. “**Topshiriq**”. Kompyuter bilan ishlash. “Office.exe” fayli kompyuterlarga joylashtirilgan. Har bir guruh o'z komandasiga oid ma'lumotni topib tanishadilar va berilgan topshiriqni bajaradilar. Maksimum: 50000 so'm. **Reglament:** 10 minut

Microsoft Office

Kirish

menyu
Kirish
Microsoft Word
Microsoft PowerPoint
Microsoft Excel

Bu sizga nima uchun kerak yoki Word, Excel, PowerPoint o'zi nima?

Har kuni bizga har xil hujjatlarni, jadvallarni, grafiklarni, prezentatsiyalarni, diagrammalarni va boshqa hujjatlarni yaratishimizga, tahrir qilishimizga to'g'ri keladi.

Kompyuter ishimizni yengillashtirishi mumkin. Bu xujjatlarni ko'chirish, o'chirish yoki qayta tayyorlashingizga hojat qolmaydi. Siz kompyuterda ishlash orqali o'z vaqtingizni tejab qolishingiz va o'z ishingizni moxirlik bilan bajarishingiz mumkin.



Microsoft Office dasturlari - Word, Excel va PowerPoint – kompyuter foydalanuvchilari uchun uchun asosiy asboblari hisoblanadi.


Ushbu modul sizga bu dasturlar bilan ishlash malakalarini o'zlashtirishingizga yordam beradi.

connect.uz
ИНТЕРНЕТ В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА

Keyingisi

2





7. **“Aksiya”.** Har bir guruh o‘z firmasiga oid ma’lumotlar asosida Office dasturlaridan foydalanib reklama aksiyasini yaratadilar. Maksimum: 25000 so‘m. **Reglament:** 10 minut . **NAMUNA:**

DIQQAT !!!

“MS WORD” firmasi

Ishga taklif qiladi

Biz sizni kutamiz!



3. **Darsni yakunlash:** Berilgan mablag‘lar hisoblanib, firmalarga 1-, 2-, 3- darajali diplomlar topshiriladi va letsinsiyalar beriladi. Berilgan javoblar asosida har bir guruh a‘zosi baholanadi va jurnalga qo‘yiladi. Uyga vazifa beriladi.



Litsenziya

Ushbu litsenziyani
“Bozor iqtisodiyoti sharoitida
diler firmalar ishi”
Ochiq darsida g’olib bo’lgan
guruhí qo’lga kiritdi.

O’qituvchi
Aliqulova D. E.